



## XALQ DEPUTATLARI QO'SHTEPA TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 7 - oktabr

VI-61-89-11-157-K/23

Qo'shtepa tuman hokimligi

### **Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorlariga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida Xalq deputatlari tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarorlari asosida joriy yilning 17-iyulidan 16-sentyabriga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha Qo’shtepa tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi mudiri I.Akbarovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Qo’shtepa tuman Kengashining 2022-yil 7-fevraldagisi VI-51-25-11-157-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan kelib chiqib, “ENG KO‘P” ovoz olgan hamda “Ochiq byudjet” axborot portalida avtomatik tarzda g‘olib sifatida tanlab olingan takliflar “g‘olib” deb topilsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo‘yicha “Manzilliy ro‘yhat”ga muvofiq

tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda,

- jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga, ishlar hajmining ko‘payishi yoki loyihaning o‘zgartirilishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan tuman byudjeti mablag‘lari tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida jamlangan mablag‘larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqylanishi belgilab qo‘yilsin.

### 3. Tasdiqlangan Manzilliy ro‘yxat asosida:

- tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Akbarov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta’minalash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag‘ manbaasi bo‘yicha (4017) “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” maxsus hisob raqamlari ochilishini;

- tuman hokimligi hisobxonasi (A.Tojiboyev) Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan belgilangan tartibda tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag‘lar yo‘naltirilishini;

- buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag‘larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatalishi va amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma’lumot kiritib borilishini ta’milasini.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati (Y.Qosimova), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Akbarov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “g‘olib” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni “Ochiq byudjet” portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yetkazilishi tavsiya etilsin.

5. Tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag‘larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga buyurtmachi tashkilotlar javobgarligi eslatib o‘tilsin.

6. Ushbu qaror tasdig‘i Xalq deputatlari Qo‘shtepa tuman Kengashining navbatdagi sessiyasidan so‘ralsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli komissiyalari zimmasiga hamda ijrosini ta’minlash moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman hokimining birinchi o‘rinnbosari A.Yunusovga yuklatilsin.

Kengash raisi



I.V.Novikov

Xalq deputatlari Qo'shtepa tuman Kengashining  
2023-yil 7-oktabrdagi  
VI-61-89-11-157-K/23-son qaroriga  
1-ilova

Qo'shtepa tumani bo'yicha "Tashabbusli byudjet" loyihasining 2-mavsumi natijalariga asosan  
jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarни moliyalashtirish bo'yicha  
**MANZILLI RO'YXAT**

№	G'olib taklif ma'lumotlari						Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Naqiqatda ajratilgan mahlag'	Shundan	mln, so'mda		Buyurtmachi etib belgilangan shakllot
	Taklif ID raqami	Taklif turkumi	Qisqacha mazmuni	Tadbirlarning manzili (Joylashgan MFY nomi)	Amalga oshiriladigan tadbir turi	To'plagan ovozlar soni				Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Mahalliy byudjetning qo'shimcha manbaalari hisobidan	
			Qo'shtepa tumani jami		xxx	33 552	7 920	7 920	7 920	0	0	
1	03169187011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichilar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Paxtakor mfy hududagi Yoshlarobod ko'chasi 400m, Tegrimonboshi ko'chasi 1600m, Orzu ko'chasi 1200m qismini asfaltlashtirish	Paxtakor	Qurilish-ta'mirlash	6840	1 320	1 320	1 320			Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
2	03168789011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichilar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Borot mfy Zarchashma, Terakzor, Orzu, Yorqin va Kattasoy ko'chalarini ichki yo'llarini asfaltlashtirish	Borot	Qurilish-ta'mirlash	6256	1 320	1 320	1 320			Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
3	03170112011	Ko'cha chiroqlarini o'matish yoki ta'mirlashi (transformator, simyog' och o'matish) tadbirlari	Soxibkor MFY hududidagi Archazor, Zumrad, Isfayramsoy ko'chalaridagi elektr ta'minotini yahsilash maqsadida 5 ta TP, 300 dona elektr tayanch ustunlari, hamda SIP kabel tarmog'i tortish.	Soxibkor	Qurilish-ta'mirlash	6001	1 320	1 320	1 320			Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi
4	031287103011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichilar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	G'ishtmon mfy hududidagi Bunyodkor ko'chasi 1634m, Fidoiy 162m, G'ishtmon ko'chasi 410m, Oxang ko'chasi 48m, Ma'naviyat ko'chasi 87m. Ibn Sino ko'chasi 340m qismini asfaltlashtirish kerak.	G'ishtmon	Qurilish-ta'mirlash	5334	1 320	1 320	1 320			Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
5	03167142011	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichilar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	Nurli zamin ko'chasinini 5000 km qismini ashaltashtirish.	Qizilariq	Qurilish-ta'mirlash	5180	1 320	1 320	1 320			Farg'ona mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati DUK
6	031269085011	Ko'cha chiroqlarini o'matish yoki ta'mirlashi (transformator, simyog' och o'matish) tadbirlari	Fayz MFY Yangi turmush, Oydinko'l, Zarafshon va Fayzli ko'chalariga 4 dona yangi transformator, 200 ta beton tayanch ustun va tarmoq tortish ishlarini amalga oshirish	Fayz	Qurilish-ta'mirlash	3941	1 320	1 320	1 320			Hududiy elektr tarmoqlari korxonasi